

Qo‘qon davlat pedagogika instituti Pedagogika va ta‘lim menejmenti kafedrası professori p.f.d. N.Sh. Erkaboyeva taqrizi ostida

MA‘NAVIY-MA‘RIFIY ISHLARNING TAKOMILLASHUVI TARBIYANING ASOSI VA QADRIYATLARNING O‘RNI

Dexqonova Jamilaxon Yodgorjon qizi

Qo‘qon DPI Pedagogika va ta‘lim menejmenti kafedrası stajyor o‘qituvchisi

ANNOTATION: In this article, spiritual, educational, ideological and religious issues are combined in the conduct of spiritual and educational activities. The concept of spiritual and educational work. It is appropriate to think about the place and importance of this topic in the development of our new Uzbekistan. After all, the morality of New Uzbekistan cannot be created without beautiful and spiritually perfect people. The principle “From Action Strategy to Development Strategy” is considered as the main idea for the important work being carried out in this regard.

KEYWORDS: Spiritual educational work, strategy, renaissance, national, education, threat, national idea, Spirituality, democratization, modernization.

АННОТАЦИЯ: В данной статье объединены духовно-просветительские, идеологические и религиозные вопросы при проведении духовно-просветительской деятельности. Концепция духовно-просветительской работы. Уместно задуматься о месте и значении этой темы в развитии нашего нового. Узбекистана. Ведь мораль Нового. Узбекистана не может быть создана без красивых и духовно совершенных людей. Принцип «От стратегии действий к стратегии развития» рассматривается как основная идея важной работы, проводимой в этом направлении.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Духовно-просветительская работа, стратегия, возрождение, национальное, образование, угроза, национальная идея, Духовность, демократизация, модернизация.

ANNOTATSIIYA: Ushbu maqolada Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni olib borishda ma‘naviy, ma‘rifiy, mafkuraviy va din masalalarining o‘zaro uyg‘unligi. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tushunchasi. Yangi O‘zbekistonimiz taraqqiyotida mazkur mavzuni o‘rni va ahamiyati xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Zero, Yangi O‘zbekistonning axloqi go‘zal va ma‘naviy barkamol insonlarsiz bunyod etib bo‘lmaydi. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya sifatida ko‘rip chiqiladi.

KALIT SO‘ZLAR: Ma‘naviy - ma‘rifiy ishlar, strategiya, renesans, umummilliy, tarbiya, tahdid, milliy g‘oya, Ma‘naviyat, demokratlashtirish, modernizatsiya qilish.

KIRISH: Bugungi kunda Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning takomillashuvi xususida fikr yuritar ekanmiz, avval, o‘z ezu va buyuk maqsadlarimizni o‘zida ifodalangan Yangi O‘zbekistonimiz taraqqiyotida mazkur mavzuni o‘rni va ahamiyati xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Zero, Yangi O‘zbekistonning axloqi go‘zal va ma‘naviy barkamol insonlarsiz bunyod etib bo‘lmaydi. Muhtaram Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek: “Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratayotgan ekanmiz: Yosh

avlodimizga – mening o‘g‘il-qizlarimga qarata aytmoqchiman: tomirlarida buyuk bobolarimizning g‘ayrat-shijoati jo‘sh urib turgan aziz farzandlarim, sizlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda doimo oldingi safda bo‘lasizlar, deb ishonaman”. [1]

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev keltirganlaridek: “Yangi O‘zbekiston” degan ibora xalqaro maydonda nafaqat yangi tushuncha, balki real ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilinmoqda. [2] Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti ma‘naviy barkamol insonlarga, ularning ilmi, bilimiga, ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy-estetik tarbiyasiga, Vatanparvarligiga, barcha sohalarda keng ko‘lamli innovatsion fikr va g‘oyalariga har jihatdan bog‘liqdir.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilishi bu sohaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun sharoitlarni yaratish borasida muhim hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yganligining ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohaga davlat siyosati darajasida ahamiyat berildi. Shuningdek, ushbu siyosat o‘zini to‘liq oqlaganligi mamlakatimizning yaqin tarixi mobaynida bosib o‘tgan tarixiy yo‘li misolida amalda o‘zini to‘la oqlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Bugungi O‘zbekiston Prezident boshchiligida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda! Bunda biz mamlakat va millat o‘laroq tanlagan yo‘l — huquqiy demokratik jamiyat tuzish yo‘li. Avvalgisidan farqli o‘laroq yolg‘ondan emas, nomigagina emas, sirti demokratik, ichi avtokratik emas, chin va haqiqiy huquqiy demokratik jamiyat tuzish yo‘lini tanladik. Bu haqda Prezident butun dunyoga ma‘lum qildi. Nafaqat og‘zaki ma‘lum qildi. Tashqi kuchlar va ichki kuchlarga ham o‘z qat‘iyatini isbot qiluvchi koordinal islohotlarni boshladi. Avvalgidek, aytdi qo‘ydi, bir yilda unutiladi degan tushunchalar bilan bundan buyon ishlab bo‘lmashligini davlat amaldorlari, mas‘ullar his qila boshlashdi. His qilmagani, unga ko‘nmagani lavozimidan olinmoqda. Shu o‘rinda kadrlar siyosatidagi tez-tez o‘zgarishlar va kadrlarning qo‘rqmasdan mas‘ul lavozimlarga tayinlanishi bu jarayonning amalga oshishi uchun, ya‘ni ko‘zlangan maqsadga erishish uchun voz kechib bo‘lmash bir ehtiyoj ekanligini ko‘rsatadi. Ya‘ni, prezident yangi nasl boshqaruv kadrlarini — yangi tafakkurga sohib, ma‘nan yetuk hamda keng mushohadali kadrlarni davlat boshqaruv apparatiga olib kelish zaruriyati shu bilan izohlanadiki, taraqqiyotning yangi bosqichiga mamlakatni faqatgina korrupsiyaga moyil bo‘lmagan, dunyoga keng nazar sola oladigan, demokratik qadriyatlarini his qila olgan nasl olib chiqa oladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatorida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarga ham alohida o‘rin berilgan. Jumladan, 2021-yil 6-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimida Shavkat Mirziyoyev kelgusi besh yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar haqida so‘zlagan nutqlarida “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyilni asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida ilgari surganda, uni tinglagan, eshitgan har bir inson keyingi amalga oshiriladigan islohotlarda millat, yurt va Vatan taraqqiyotini his etdi. Taraqqiyot strategiyasida jamiyatni yanada rivojdantirish uchun muhim bo‘lgan barcha siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy masalalar bilan bir qatorda ma‘naviy va ma‘rifiy masalalarning qo‘yilishi ham ushbu sohaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilaydi. Taraqqiyot strategiyasida inson qadriini ulug‘lash, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta‘minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta‘lim-tarbiya

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

masalasi, ma'naviy va ma'rifiy sohani rivojlantirish, ekologik tahdidlarning salbiy ta'siri, mamlakatimizdagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar kun tartibiga qo'yilgan bo'lib, bunda inson, uning qadr-qimmatini, jamiyatda xotirjam yashashi, farzandalariga ta'lim-tarbiya berishda uning ortida davlat, Prezident turganligini his qilishi, yaxshi, farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilajagi haqidagi fikrlarni anglash qiyin emas.[3.]

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning 1583 ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish internet-axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur berish, terrorism, diniy ekstremizm, aqidaparastlik separatizm, odam savdosi, ommaviy madaniyat, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi g'oyaviy kurash olib borish jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish, milliy g'oyani viloyatlarimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ibot etish muhim vazifalar hisoblanadi. Xususan, hozirgi globallashuv jarayonlarida yoshlarni shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan himoyalash har bir shaxsning ruxiy olamida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, distributiv (buzg'unchi) guruhlar ta'siridan asrash, har bir fuqaroda yoshlarimiz milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish tobora muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tarbiya sifati va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirishda birinchi navbatda yoshlarga ma'naviy, g'oyaviy, bilim va tarbiya berish hamda ularga jamiyat manfaatlariga zid zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish orqali O'zbekistonni buyuk kelajakka erishish har tomonlama yetuk yoshlarni voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.[4.] Bundan buyon Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi barcha hududiy kengashlarning, vazirlik, idora va tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini muvofiqlashtirib borishi belgilandi. Markaz va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta'minoti keskin kuchaytiriladi. Uning faoliyati ilmiy tadqiqot va targ'ibot-tashviqot yo'nalishlarida qayta tashkil qilinadi.

Istiqloq davrida milliy g'oyani shakllantirish, an'analarni qadrlash, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ma'naviyat va ma'rifat sohalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va shifokorlar, olimlar va ziyolilar, madaniy oqartuv muassasalari va boshqa sohalaridagi mutaxassislarining ijodiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratildi. "Ma'naviy-ma'rifiy sohada istiqbolni faqat bu soha odamlari yaratmaydi, balki bu ishni tizim bajaradi. Tizim yaratilsa, iqtidorli ijrochilar eng muhim joylarga qo'yilsa – ish yurishib ketaveradi. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak"

Markaz tashkil topganligining birinchi yilida mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlari orasida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibot ishlarini tashkil etib, sobiq tuzum davridan saqlanib kelayotgan loqaydlik, beparvolik, boqimondalik kabi illatlarga qarshi kurash boshladi. "G'oyalar, fikrlar va dasturlar jamg'armasi" bo'limi milliy urf-odatlarimiz, an'analalarimiz,

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

to‘ylarimiz va marosimlarimiz to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinayotgan eng yaxshi g‘oyalarni to‘plab, “Eng yaxshi g‘oyalar” jamg‘armasini tashkil etdi va shular asosida barcha vazirlik, uyushma, korxonalar va muassasalarda keng targ‘ibot ishlari olib bordi. SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida “Tafakkur” jurnali ham tashkil etildi

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, aniq maqsadlarni oldiga qo‘ygan holda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni maqsadli tashkil etish, u orqali insonlar ongida Vatanga muhabbat ruhini singdirish, ular orasida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yaxshilash, ularni ertangi kunga ishonch bilan bunyodkorlik ishlariga jalb etish, ma‘naviyatini yuksaltirish, ilmiy, bilimli, amiyatga nafi tegadigan inson bo‘lib yetishishlarida bu faoliyatning ahamiyati beqiyosdir.

Umuman olganda, oxirgi uch yilda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslanadi. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma‘naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Shu sababli mavjud muammolarni hal etish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning samarasi va ta‘sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori. Yangi O‘zbekiston. www.lex.uz
2. Prezident Sh.Mirziyoyevning Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. // Xalq so‘zi. 2018-yil, 15 avgust
3. Sh.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T. “O‘zbekiston”. 2020. 1585
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy siyosiy gazetasi. 2021-yil 7-noyabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF 4947-sonli Farmoni.
6. V.Alimasov, Y.Manzarov. O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy soha: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2014.108b.